

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MURODOV JAHONGIR CHORIYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
STATISTIK USULLARDA BAHOLASH
(TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06. – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Murodov Jahongir Choriyevich

Fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholash (Toshkent viloyati misolida) 3

Муродов Джахонгир Чориевич

Оценка эффективности фермерской деятельности статистическими методами (на примере Ташкентской области)..... 29

Murodov Jahongir Choriyevich

Evaluation of the efficiency of farm activities using statistical methods (on the example of Tashkent region)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MURODOV JAHONGIR CHORIYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
STATISTIK USULLARDA BAHOLASH
(TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06. – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2548 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabixodjayev Abbas Abdupattaxovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan iqtisodchi

Rasmiy opponentlar:

Salimov Baxtiyor Tadjiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mirzanov Berdak Joldasbaevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar
malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar
instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "29" 04 soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7635 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-27; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil "4" 04 daqiqa 66 raqamli reyestr bayonnomasi)



S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
i.f.d., professor

B.D.Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyo miqyosida bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar fermer xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning bozor munosabatlarini ta'minlaydigan erkin iqtisodiy makonni vujudga keltirmoqda. Jahonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, iqtisodiyotning tobora erkinlashib borishini, jamiyatdagi modernizatsiya jarayonlarining jadallashishi bozor munosabatlarining ham takomillashib borishiga zamin yaratmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar natijasida vujudga kelgan fermer xo'jaliklari barqaror va samaradorlik darajasi yuqori bo'lishi lozim. "Dunyo mamlakatlarida korxonalar hajmi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, yer va geografik, inson omilini hisobga olgan tarzda iqtisodiy oqibat natijalariga ko'ra shakllanadi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Kanadada bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 215 gektar, AQSHda 145 gektar, Germaniyada 19,5 gektar, Belgiya va Gollandiyada 17,0 gektar, Italiyada 8,5 gektar er to'g'ri keladi"¹. Bugungi kunda jahonda fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik baholash aholining xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlashning asosiy manbai sifatida qaralmoqda.

Jahonda fermer xo'jaliklari faoliyat samaradorligini statistik usullar asosida baholash mexanizmlaridan foydalanish, ishlab chiqarishni shart-sharoitlardan kelib chiqqan tarzda iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ekonometrik usullarda prognozlashtirishning haqiqiylik darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fermer xo'jaliklarining samarali faoliyatida ishonchli ma'lumotlarning oshkoraligi va shaffofligini oshirishda uslubiy asoslarni takomillashtirish, fermer xo'jaliklari bo'yicha statistika ma'lumotlarini unifikatsiyalash darajasini oshirib borish, iqtisodiy ta'sirlar natijasida fermer xo'jaliklarining samaradorligini ta'minlash, ularning samarali faoliyatiga demografik jarayonlarning bog'liqligini statistik baholash kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash sharoitida aholiga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishda ishlab chiqaruvchi sifatida fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. "Avvalo, fermer va dehqonlarning yerdan manfaatdorligini oshirish kerak. Manfaaddorlik va adolat bo'lgan joyda, albatta, o'zgarish va o'sish bo'ladi"².

Shu sababli, fermer xo'jaliklarining faoliyati samardorligini statistik baholash metodologiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida statistik ma'lumotlar bazasini takomillashtirish, fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmini modellashtirishning, jumladan, "Google colab" platformasi, "Panel data" modeli va

¹<https://genderi.org/reja-i-kirish-ii-shirkat-xojaliklari-va-ularning-tashkiliy-iqt.html?page=3>. ma'lumotlari.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi gazetasi, 2020. 30-dekabr. – № 275-276 (7746-7747).

“Python 3.8.2” dasturining haqiqiylik darajasini oshirish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “Milliy Statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3824-son “Fermer xo‘jaliklarida hisob tizimini tubdan yaxshilash va ularga bank xizmatlari ko‘rsatishni takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuratayotgan fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirishning uslubiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatlari olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Yangi fermer xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirish muammolari iqtisodchilar tomonidan statistik tadqiq qilingan. Jumladan, L.Jay, B.Robert, E.P.George, G.Hunter William, J.Stuart Hunter., D.E.Farrer, F.R.Glauber kabi ko‘plab xorijiy olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida muhim o‘rin egallagan³. Ular fermer xo‘jaliklarining faoliyatini statistik tadqiq qilish nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Fermer xo‘jaliklarining samaradorligini ekonometrik modellashtirish, statistik usullarda baholash va miqdoriy o‘rganishning amaliy tadbiqlarda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ushbu muammoga MDH olimlaridan I.N.Chuyev, L.N.Chuyeva, F.T.Aydinova, A.V.Nazarenko, V.V.Kurenaya, O.O.Smirnova, A.S.Yelagina, A.E.Streltsov, A.I.Averknev, F.S.Abduvosiyev, K.K.Davlatov va boshqa iqtisodchi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida alohida e‘tibor qaratganlar⁴.

³ Devore Jay L. Probability and Statistics for Engineering and the Sciences. 4th ed. – Wadsworth Publishing, 1995; McCall Robert B. Fundamental Statistics for the Behavioral Sciences. 5th ed. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1990; Box George E.P., William G.Hunter and J.Stuart Hunter. Statistics for Experimenters: An Introduction to Design, Data Analysis, and Model Building. – New York: John Wiley and Sons, 1978; Farrer D.E., Glauber F.R. Multicollinearity in Regression Analysis Review of Economics and statistics. Vol. 49. 1969.

⁴ Чуев И.Н., Чуева Л.Н. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. – М.: ИТК Дашков и Ко, 2010. – 420 с.; Айдинова Ф.Т., Назаренко А.В. Анализ современного состояния и развития крестьянских (фермерских) хозяйств в сельском хозяйстве России // УДК 33. DOI: 10.34670/AR.2021.62.41.026.2021; Куренная В.В., Айдинова А.Т. К вопросу о роли крестьянских (фермерских) хозяйств в функционировании масличного подкомплекса региона: тенденции и перспективы // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий, 2017. – № 1. – С. 53–57; Смирнова О.О., Елагина А.С. Устойчивость фермерского хозяйства в условиях глобализации: обобщение международных исследований // Экономика: вчера, сегодня, завтра, 2020. Том 10. – № 7В. – С. 254–261. DOI: 10.34670/AR.2020.44.61.006; Стрельцов А.Е. Факторы повышения эффективности государственной поддержки крестьянских (фермерских) хозяйств в Алтайском крае //

O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarining faoliyati samarasini statistik usullarda baholashni nazariy jihatdan o‘rganishga olimlardan H.R.Husanov, S.S.G‘ulomov, B.B.Berkinov, R.X.Toshmatov, N.M.Maxmudov, T.F.Farmonov, B.Yu.Xodiyev, A.M.Abdullayev, T.Sh.Shodiyev, N.M.Soatov, B.X.Mamatkulov, B.Q.Utanov, X.K.Kalimbetov va boshqalar sezilarli hissa qo‘shdilar⁵. O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalangan tarzda fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning eng maqbul yo‘llarini topishda amaliy ahamiyatga ega. Ammo ushbu olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va tayyorlangan uslubiy ishlanmalar fermer xo‘jaliklari faoliyatining samarasini statistik baholash usullarini takomillashtirish doirasida o‘rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik baholash tendensiyalariga, yalpi ishlab chiqarish hajmiga, ularning olgan daromadlariga, samaradorlikni oshirishga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlashga asoslangan ushbu dissertatsiya ishining mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishining mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № FM-6 “O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy o‘sishning barqaror sur‘atlarini ta’minlash” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyati hududlarida fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorlik darajasini statistik hamda ekonometrik baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

A.E.Стрельцов // Вестник АГАУ, 2012. – № 1 (87). – С. 127–132. 0,38 п.л.; Аверкнев А.И. Методические основы развития и использования технического потенциала сельскохозяйственного производства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий, 2000. – № 1. – С. 17–21; Абдувосиев Ф.С. Агропромышленный комплекс Республики Таджикистана в системе внешнеэкономических отношений // Экономика Таджикистана: стратегия развития, 2005. – № 3. – С. 124–131; Давлатов К.К. Дехканские (фермерские) хозяйства: проблемы становления и перспективы развития. – Душанбе, Ирфон, 2003. – 128 с.

⁵ Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. – Т.: Узбекистан, 1994. – 72 с., Гулямов С.С., Догил Л.Ф., Семенов Д. Предпринимательство и малый бизнес. – Т.: ТГЭУ, 1996; Беркинов Б.Б., Тошматов Р.Х. Ўзбекистонда фермер хўжаликлар ва уларга хизмат кўрсатувчи бозор инфратузилмаларини ривожлантириш истикболи. – Т.: ТДИУ, 2008. – 147 б.; Махмудов Н.М., Сычева Н.И. Фермер хўжаликлари фаолиятини моделлаштириш. Ўқув кўлланма. – Т., 2005; Фармонов Т.Ф. Фермер хўжаликларини ривожлантириш истикболлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 178 б.; Ходиев Б.Ю., Ишназаров А. Эконометрика. – Т.: ТГЭУ, 2007. – 467 с.; Абдуллаев А.М., Шодиев Т., Хакимов Т. Иқтисодий-математик усуллар ва моделлар. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюشمаси нашриёти, 2005. – 271 б.; Шадиёв Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.: Фан, 1986. – 168 с.; Soatov N.M. Statistika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Т.: Ibn Sino, 2003. – 744 б.; Маматкулов Б.Х. Фермер хўжаликларининг иқтисодий кўллаб-қувватлаш механизмлари самарадорлигини статистик баҳолаш усулларини такомиллаштириш (Ўзбекистон республикаси фермер хўжаликлари мисолида). Автореферат. – Тошкент: Davr Matbuot savdo, 2022. – 83 б.; Utanov B.Q. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini ekonometrik modellash-tirish. 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Тошкент: Davr Matbuot savdo, 2019. – 26 б.; Калимбетов Х.К. Повышение эффективности деятельности фермерских хозяйств на основе дополнительных отраслей. Автореферат. – Ташкент, 2018. – 27 с.

Tadqiqotning vazifalari:

fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini statistik o‘rganish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini aniqlash va rolini statistik tadqiq qilish;

fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorlik darajasini ta‘riflovchi ko‘rsatkichlar manbalarini statistik o‘rganish;

fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda ilg‘or mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni asosiy yo‘nalishlarini statistik tadqiq etish;

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini anketa-so‘rovnomalari asosida statistik takomillashtirish;

fermer xo‘jaliklarining yalpi hosilini “Google colab” model asosida ekonometrik modellashtirish asnosida ularning samaradorligi dinamikasini miqdoriy baholash;

fermer xo‘jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmini “Panel data” modeli asosida ekonometrik modellashtirish;

fermer xo‘jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmini “Python 3.8.2” dasturi orqali 2024-2028-yillarga prognozlashtirish;

fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik baholash uslubiyatini takomillashtirish;

fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholash jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida statistik kuzatish, korrelyatsion-regression tahlil, dinamika qatorlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlari, statistik baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “fermer xo‘jaliklarining faoliyat samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni xo‘jalik tomonidan resurslardan foydalanish darajasini, ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarni, mehnat unumdorligini hamda rentabellikni baholovchi ko‘rsatkichlar majmuasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik jihatidan tahlil qilish asosida takomillashtirilgan;

fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik baholash amaliyoti xo‘jalik faoliyati turlari hamda ularni amalga oshirishning asosiy resurslari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlash holatidan kelib chiqqan holda faoliyat samaradorligining “yuqori” ($0,75 \leq Syu \leq 1$), “o‘rta” ($0,35 \leq Syu \leq 0,74$), “past” ($0 \leq Syu \leq 0,34$) darajalarining miqdoriy diapazonini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

Toshkent viloyati hududlarida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi omillarni dasturiy platforma yordamida ekonometrik baholash orqali ekin maydonini kengaytirish (EMK = 35%), yuqori hosil beradigan navlarni ekish (YUNE = 42%)

va mineral o'g'itlarning yetkazib berish ($MO'E = 23\%$) omillarining ta'sir chegarasi aniqlangan;

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2028-yilga qadar bir necha variantdagi prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

anketa-so'rovnomalari asosida fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorlik darajasi to'g'risida haqiqiy, sifatli va shaffof ma'lumotlar olish hamda ularni tahlil qilish imkoniyati yaratildi va "Google Docs" dasturiy ta'minot uchun algoritmi ishlab chiqilishi natijasida fermer xo'jaliklarini ro'yxatga olish uslubiyati amaliyotga tadbiiq etildi;

fermer xo'jaliklarining olgan daromadlariga ta'sir etgan eng kuchli, kuchsiz ijobiy va salbiy omillar ta'sirini "Google colab" modeli asosida ekonometrik modellashtirish ularning faoliyati samaradorlik darajasini statistik baholashga yordam berdi, fermer xo'jaliklarining olgan daromadiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni baholash uchun xizmat qilgan hamda amaliyotda olgan daromadini oshirishga imkon yaratildi;

fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar "Panel data" modeli asosida ekonometrik modellashtirish metodologiyasining amaliyotga joriy qilinishi statistik tahlil qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirgan;

fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmini "Python 3.8.2" dasturi orqali 2024-2028-yillarga prognoz qilinishi natijasida bir necha variantdagi prognoz ssenariylari ishlab chiqilishi makroiqtisodiy muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishidagi nazariy va amaliy statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, prognoz ko'rsatkichlarini ekonometrik usullar vositasida ilmiy asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar tomonidan foydalanilish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy tadqiqot ishida asoslangan g'oya va uslubiy ishlanmalar fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini oshirishda statistik tadqiq etish, belgilangan maqsadga erishish uchun kompleks dasturlar ishlab chiqish asosida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ini statistik tahlil qilish hamda prognozlashni sifatli amalga oshirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, aniqlangan taklif va tavsiyalar fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini yuqori darajada statistik baholashga imkon yaratishi, olingan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiy va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan ta'sir etuvchi omillar hisobiga yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlash va dasturlar ishlab chiqishda

foydalanilishi va taklif qilingan takomillashtirilgan usullari statistika idoralarining turli darajada qo'llanilishi, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Qishloq xo'jaligi statistikasi", "Statistika", "Iqtisodiy statistika", "Ekonometrika", magistratura mutaxassisligining "Amaliy ekonometrika", "Ekonometrik metodlar" kabi fanlari o'quv dasturi, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Fermer xo'jaliklarining faoliyat samaradorlik darajasini statistik baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "fermer xo'jaliklarining faoliyat samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini xo'jalik tomonidan resurslardan foydalanish darajasini, ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarni, mehnat unumdorligini hamda rentabellikni baholovchi ko'rsatkichlar majmuasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik jihatidan tahlil qilish asosida takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Qishloq xo'jaligi statistikasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237 – sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik jihatidan tahlil qilish asosida takomillashtirilgan "fermer xo'jaliklarining faoliyat samaradorligi" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik baholash amaliyoti xo'jalik faoliyati turlari hamda ularni amalga oshirishning asosiy resurslari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash holatidan kelib chiqqan holda faoliyat samaradorligining "yuqori" ($0,75 \leq Syu \leq 1$), "o'rta" ($0,35 \leq Syu \leq 0,74$), "past" ($0 \leq Syu \leq 0,34$) darajalarining miqdoriy diapazonini aniqlash asosida takomillashtirish taklifi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, jumladan, Toshkent viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-877-sonli, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 11-sentabrdagi №01/04-1654-sonli, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 6-sentabrdagi №01/3-13-10-831-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida anketa-so'rovnomalarida qatnashgan 114 ta fermer xo'jaliklari faoliyatidagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni bartaraf etish choralari amalga oshirildi hamda statistik ko'rsatkichlarni ochiq e'lon qilish kengaytirildi va "Google Docs" dasturiy ta'minoti ishlab chiqilishi natijasida samaradorlikni statistik baholashni takomillashtirish metodologiyasi amaliyotga joriy etilgan;

Toshkent viloyati hududlarida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta'sir etuvchi omillarni dasturiy platforma yordamida ekonometrik baholash orqali ekin maydonini kengaytirish (EMK = 35%), yuqori hosil beradigan navlarni ekish (YUNE = 42%) va mineral o'g'itlarning yetkazib berish (MO'E = 23%) omillarining ta'sir

chegasidan foydalanish taklifi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, jumladan, Toshkent viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-877-sonli, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 11-sentabrdagi №01/04-1654-sonli, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 6-sentabrdagi №01/3-13-10-831-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirishda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish imkoniyatini yaratgan hamda takomillashgan ekonometrik model asosida eng kuchli ijobiy omil 1 ta fermer uchun to'g'ri keladigan yer maydoni hisobiga POLS modeli bo'yicha 0.6707 foizga, FDE modeli bo'yicha 0.4616 foizga, FEE modeli bo'yicha esa 0.2964 foizga kamaygan, REE modeli bo'yicha 0.6707 foizga oshganligi, eng kuchli salbiy omil Fermer xo'jaliklariga joriy yil hosili uchun ekilgan barcha ekinlar yer maydoni hisobiga POLS modeli bo'yicha 0.3414 foizga, FDE modeli bo'yicha 0.2431 foizga, FEE modeli bo'yicha foizga 0.1365 foizga, REE modeli bo'yicha yesa 0.3414 foizga kamayganligi ekonometrik baholangan;

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan bir necha variantdagi prognoz ssenariylaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-877-sonli, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 11-sentabrdagi №01/04-1654-sonli, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 6-sentabrdagi №01/3-13-10-831-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida prognoz natijalari asosida 2028-yilda fermer xo'jaliklari yalpi ishlab chiqarishi hajmi 1082.68 mlrd. so'mni, fermer xo'jaliklari soni 5138 tani, fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan umumiy yer maydoni 146630 gektarni, fermer xo'jaliklarida band bo'lganlar soni 50572 kishini, fermer xo'jaliklari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi esa 436,95 mlrd. so'mni tashkil etishi mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Doktorlik dissertatsiya ishining asosiy taklif va tavsiyalari ma'ruzalar shaklida 4 ta xalqaro hamda 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Doktorlik dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalari bo'yicha chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 1 ta respublikamiz va 3 ta xorijiy jurnallarda, 12 ta tezis, shundan 4 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-anjumanlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholashning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida fermer xo‘jaliklarining faoliyati samaradorligi – statistik o‘rganish obyekti sifatida qaralib, fermer xo‘jaligi faoliyatining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar manbalarini hamda ularni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalanishni statistik baholashning asosiy yo‘nalishlari statistik tadqiq etilgan.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bunday natijalarga o‘zbek xalqimizning fidokorona mehnati, tabiiy va iqtisodiy omillardan, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish evaziga erishilmoqda.

1-jadval.

Toshkent viloyati YaHM, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi QQ, fermer xo‘jaliklari YalCh hajmining o‘zgarish dinamikasi⁶

Yillar	YaHM, mlrd.so‘m		YaHM o‘sishi (kamayishi), %		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi QQ, mlrd.so‘m		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi QQning osihi (kamayishi), %		Fermer xo‘jaliklari YalCh, mlrd.so‘m		Fermer xo‘jaliklari YalChning osihi (kamayishi), %	
	joriy baholarda	2023-y. baholarida	2014 y = 100 %	oldingi yilga nisbatan	joriy baholarda	2023-y. baholarida	2014 y = 100 %	oldingi yilga nisbatan	joriy baholarda	2023-y. baholarida	2014 y = 100 %	oldingi yilga nisbatan
2014	18 729,0	66 896,6	100,0	106,2	9 521,9	35 035,6	100,0	104,0	2 917,6	12 054,8	100,0	101,5
2015	22 089,0	70 843,5	105,9	105,9	11 263,2	36 331,9	103,7	103,7	3 511,5	11 910,1	98,8	98,8
2016	23 876,1	74 173,2	110,9	104,7	12 578,7	36 913,2	105,4	101,6	3 481,5	10 897,8	90,4	91,5
2017	29 092,8	74 914,9	112,0	101,0	16 378,5	35 842,8	102,3	97,1	3 902,5	8 413,1	69,8	77,2
2018	40 219,2	80 009,1	119,6	106,8	19 541,2	35 556,0	101,5	99,2	4 102,2	7 798,9	64,7	92,7
2019	55 306,5	85 849,8	128,3	107,3	21 632,7	35 769,3	102,1	100,6	4 041,1	6 527,7	54,2	83,7
2020	65 243,8	88 339,4	132,1	102,9	25 814,6	36 520,5	104,2	102,1	3 920,2	5 666,0	47,0	86,8
2021	82 148,4	97 791,8	146,2	110,7	30 712,7	37 981,3	108,4	104,0	4 672,5	5 564,0	46,2	98,2
2022	93 433,1	102 779,1	153,6	105,1	35 093,6	39 424,6	112,5	103,8	6 096,3	6 587,8	54,6	118,4
2023	107 918,1	107 918,1	161,3	105,0	41 001,6	41 001,6	117,0	104,0	6 495,6	6 495,6	53,9	98,6

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Toshkent viloyati yalpi hududiy mahsuloti (taqqoslama baholarda) 2014-yilda 66896,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan


⁶ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2014–2023-yillardagi statistik to‘plamlari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

bo'lsa, 2023-yilda 107918,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 41021,4 mlrd. so'mga yoki 61,3 %ga oshgan.

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari yalpi ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda 2014-yilda 12054,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 6495,6 mlrd. so'mni tashkil qilgani holda, 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 5559,1 mlrd. so'mga yoki 46,12 %ga kamaygan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy tayanchi bo'lgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.


Toshkent viloyatida fermer xo'jaliklari soni 2014-yilda 7619 tani tashkil etgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari optimallashtirilgandan keyin 2023-yilda fermer xo'jaliklari soni 6528 tani tashkil qildi (1-rasm).



1-rasm. Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari sonining o'zgarish dinamikasi⁷, birlikda.

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklariga biriktirilgan umumiy yer maydoni 2014-yilda 458162 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 298464 gektarni tashkil qilgani holda, 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 159698 gektarga yoki 34,9 foizga kamaygan. Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan qishloq xo'jaligi ekinlar maydoni kamayishining asosiy sabablaridan biri, ularga biriktirilgan yer maydonlarida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun mahalliy aholiga yer ajratilayotganligi hisoblanadi (2-rasm).

⁷ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2014-2023-yillar bo'yicha statistik to'plamlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



2-rasm. Fermer xo‘jaliklarida yer maydonining o‘zgarish dinamikasi (ming gektar hisobida)⁸.

2-jadval.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklar faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari statistik tahlili⁹

Ko‘rsatkichlar	2022-yil				2023-yil			
	Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum, mln.so‘m	Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun jami xarajatlar mln.so‘m	Foyda (zarar (-) mln.so‘m	Rentabellik darajasi, %	Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum, mln.so‘m	Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun jami xarajatlar mln.so‘m	Foyda (zarar (-) mln.so‘m	Rentabellik darajasi, %
Nurafshon sh.	0,10	0,10	0	100	0,10	0,08	0,02	25,0
Olmaliq sh.	10,0000	9,40	0,60	6,4	12,10	11,10	1,00	9,0
Angren sh.	0,60	0,40	0,20	50,0	1,10	0,80	0,30	37,5
Bekobod sh.	0	0	0	0	0	0	0	0
Ohangaron sh.	0	0	0	0	0	0	0	0
Chirchiq sh.	0	0	0	0	0	0	0	0
Yangiyo‘l sh.	0,04	0,03	0,01	33,3	0,04	0,03	0,01	33,3
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo‘rg‘on	182,30	134,50	47,80	35,5	154,40	122,90	31,50	25,6
Ohangaron	82,80	50,90	31,90	62,7	71,60	44,20	27,40	62,0
Bekobod	201,40	147,80	53,60	36,3	167,50	140,40	27,10	19,3
Bo‘stonliq	48,00	38,70	9,30	24,0	46,3000	31,20	15,10	48,4
Bo‘ka	488,10	379,80	108,30	28,5	294,1000	242,90	51,20	21,1
Quyi Chirchiq	17,00	12,00	5,00	41,7	17,9000	15,90	2,00	12,6
Zangiota	50,80	37,00	13,80	37,3	48,3000	30,00	18,30	61,0
Yuqori Chirchiq	301,30	216,60	84,70	39,1	203,6000	157,80	45,80	29,0
Qibray	144,20	126,40	17,80	14,1	70,0000	44,50	25,50	57,3
Parkent	166,70	121,30	45,40	37,4	138,0000	102,20	35,80	35,0
Pskent	407,60	314,50	93,10	29,6	497,8000	432,80	65,00	15,0
O‘rta Chirchiq	285,40	198,30	87,10	43,9	212,2000	155,90	56,30	36,1
Chinoz	174,20	123,20	51,00	41,4	153,6000	112,70	40,90	36,3
Yangiyo‘l	119,90	89,10	30,80	34,6	117,4000	88,40	29,00	32,8
Toshkent	101,70	72,90	28,80	39,5	128,9000	96,80	32,10	33,2
Toshkent viloyati bo‘yicha:	2 782,14	2 072,93	709,21	34,2	2 334,94	1 830,55	504,39	27,6

⁸ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2014-2023-yillar bo‘yicha statistik to‘plamlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁹ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2022-2023-yillar ma‘lumotlari asosida muallifning ilmiy hisob-kitoblari.


Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarining mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum 2782,14 mln.so'mni, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun jami xarajatlar 2072,93 mln.so'mni, mahsulot sotishdan foyda 709.21 mln.so'mni, rentabellik darajasi 34,2 %ni, 2023-yilda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum 2 334,94 mln.so'mni, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun jami xarajatlar 1 830,55 mln.so'mni, mahsulot sotishdan foyda 504,39 mln.so'mni, rentabellik darajasi 27,6 %ni tashkil etgan (2-jadval).

Mamlakat agrar sektorida rasmiy statistikasi muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish va tarqatish maqsadida mamlakatning yaxlit milliy statistika tizimida qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish lozim. Shu sababli, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida fermer xo'jaliklarining faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholashning nazariy hamda uslubiy asoslarini o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligi anketa-so'rovnomalari asosida statistik baholanib, fermer xo'jaliklarida don va dukkakli don ekinlarning yalpi hosili “Google colab” platformasida hamda ularning yalpi ishlab chiqarish hajmi “Panel data” modeli asosida ekonometrik modellashtirilgan.

Ma'lumki, tanlanma statistika kuzatuvlari rasmiy statistikasi tayyorlovchilar tomonidan tasdiqlangan statistika kuzatuvlari shakllari asosida o'tkazilib, statistika kuzatuvlarida respondentlar va uy xo'jaliklari ixtiyoriy asosda ishtirok etadi.


Toshkent viloyati bo'yicha o'tkazilgan anketa-so'rovnomalarda 114 respondent qatnashib, ulardan olingan ma'lumotlar¹⁰ quyidagi diagramma va jadvallarda o'z aksini topgan:



3-rasm. 2024-yil 1-sentyabr holatiga Toshkent viloyati hududida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv salmog'i (% hisobida).

¹⁰ Muallifning ilmiy tadqiqotlari natijasidan olingan.

2024-yil 1-sentyabr holatiga Toshkent viloyati tuman va shaharlarida anketa-so'rovnomalarida Toshkent tumani 7 ta (6,1 %), Nurafshon shahri 1 ta (0,9 %), Oqqo'rg'on tumani 41 ta (36 %), Ohangaron tumani 6 ta (5,3 %), Bekobod tumani 8 ta (7 %), Bo'ka tumani 14 ta (12,3%), Zangiota tumani 1 ta (0,9 %), Yuqorichirchiq tumani 4 ta (3,5 %), Qibray tumani 4 ta (3,5 %), Parkent tumani 1 ta (0,9 %), Pskent tumani 10 ta (8,8 %), Chinoz tumani 13 ta (11,4 %), Yangiyo'l tumani 4 ta (3,5 %) respondent qatnashganligi aniqlangan (3-rasm).



4-rasm. 2024-yil 1-sentyabr holatiga Toshkent viloyati hududida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarining olgan daromadlari salmog'i (% hisobida)¹¹.

2024-yil 1-sentyabr holatiga anketa-so'rovnomalar o'tkazilishi natijasida Toshkent viloyati tuman va shaharlarida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklaridan qatnashgan 112 ta respondentlarning 8 tasi (7 %) daromad olmaydigan, 15 tasi (13,2 %) 0-10 mln.so'm, 13 tasi (11,4 %) 10-20 mln.so'm, 25 tasi (21,9 %) 20-30 mln.so'm, 18 tasi (15,8 %) 30-40 mln.so'm, 8 tasi (7 %) 40-50 mln.so'm, 27 tasi 50 mln.so'mdan yuqori daromad olishi aniqlangan (4-rasm).

“Google Colab – foydalanuvchilarga Jupyter noutbuklari yordamida Python kodini ishlatish imkonini beruvchi bepul onlayn platforma. NIMA (Neural Image Assessment) – bu tasvirning hissiy-idrokiy bahosini bashorat qila oladigan chuqur o'rganish modeli hisoblanadi.

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga (Y) ta'sir etuvchi t-vaqt birligi, fermer xo'jaliklarida don va dukkakli don ekilgan ekin maydoni, gektar (X1), fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o'rtacha hosildorligi, ts/ga (X2), fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan mineral o'g'itlar, tonna (X3) omillarni “Google colab” platformasida Toshkent viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida ekonometrik baholaymiz. Buning uchun boshlang'ich statistik ma'lumotni tahlil qilamiz (3-jadval).

¹¹ Muallifning ilmiy tadqiqotlari natijasidan olingan.


3-jadval.

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta'sir etuvchi omillarning "Google colab" platformasida aniqlangan natijalari

Ko'rsatkichlar	Yillar	Fermer xo'jaliklarida don va dukkakli don ekilgan ekin maydoni, gektar (X1)	Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o'rtacha hosildorligi, ts/ga (X2)	Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan mineral o'g'itlar, tonna (X3)	Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlar yalpi hosili, tonna (Y)
count	230	230	230	230	230
mean	2018	9851.6	30.8	5171.6	40659.2
std	2019	23505.6	19.9	244833.7	98906.9
min	2014	0.0000	0.0	0.0	0.0
25 %	2016	3250.0	18.3	0.0	13200.0
50 %	2018	3390.0	34.8	8492.9	13130.0
75 %	2021	10120.6	44.9	277762.3	41837.4
max	2023	147875.0	70.6	292180.2	702451.0

Korrelyatsiya koeffitsiyent xaritasi – bu -1 dan +1 gacha bo'lgan qiymalarni ranglar orqali ifodalaydi. Unda ustun va qator bor. Bir hodisa ma'lumotining boshqa hodisa ma'lumotiga bog'liqligini kombinatsiya qiladi, masalan: 2×2 kvadrat xarita 2 ta omilni bir-biriga nisbatan kombinatsiya qilib bog'liqligini ko'rsatadi, agar 3 ta omil bo'lsa 3×3 kombinatsiya qilib olishimiz mumkin (5-rasm).


Biz ushbu modelni tuzish uchun Python dasturlash tili va Google colab web dasturi orqali o'qitib oldik. Modelni yuklab olib har qanday dasturlash tili va ilovalar bilan integratsiya qilib kelajakda foydalansak bo'ladi. U bilan istiqbol uchun bashorat qila olamiz.



5-rasm. Toshkent viloyati va hududlari bo'yicha don hamda dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion bog'lanish natijalari¹².

¹² Muallifning ilmiy tadqiqot natijalari hisob-kitoblari.

Ko‘rinib turibdiki, chiziqli regressiya tenglamasi to‘g‘ri chiziq tenglamasidan iborat va chiziqsiz regressiya tenglamalari esa, mos ravishda, parabola va giperbola tenglamalaridir.



6-rasm. Don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi omillarning bog‘lanish zichligi¹³.

Shunday qilib, chiziqli model don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi omillarning bog‘lanish zichligining o‘zgarishidagi 97,36 % vaziyatni tushuntirib bera oladi. Don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi omillarning bog‘lanish zichligi o‘zgarishidagi 100 % – 97,36 % = 2,64 % vaziyat esa, unga ta‘sir qiladigan, lekin regressiyaning chiziqli modeliga kiritilmagan, qolgan omillar bilan bog‘liq (6-rasm).

4-jadval.

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don hamda dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi eng kuchli va kuchsiz, ijobiy hamda salbiy omillar¹⁴

Eng kuchli ijobiy omil*	Eng kuchsiz ijobiy omil*
X₁ – fermer xo‘jaliklarida don va dukkakli don ekilgan ekin maydoni, gektar	X₃ – fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan mineral o‘g‘itlar, tonna
Eng kuchli salbiy omil*	Eng kuchsiz salbiy omil*
X₂ – Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligi, ts/ga	t – vaqt birligi

¹³ Muallifning ilmiy tadqiqot natijalari hisob-kitoblari.

¹⁴ Muallifning ilmiy tadqiqot natijalari hisob-kitoblari.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli dondan olingan yalpi hosilga ta‘sir etuvchi eng kuchli ijobiy omil sifatida X_1 – fermer xo‘jaliklarida don hamda dukkakli don ekilgan ekin maydoni (gektar), eng kuchsiz ijobiy omil X_3 – fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan mineral o‘g‘itlar (tonna), eng kuchli salbiy omil X_2 – fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligi (ts/ga), eng kuchsiz salbiy omil t – vaqt birligi ekanligi aniqlandi (4-jadval).

5-jadval.

Fermer xo‘jaliklari don va dukkakli don ekinlar yalpi hosiliga ta‘sir etuvchi omillarning SWOT – tahlili¹⁵.

<p>S – Kuchli tomonlar <i>(Strengths)</i></p> <p>X_1 – fermer xo‘jaliklarida don va dukkakli don ekilgan ekin maydonini kengaytirishga viloyat miqyosida yetarlicha e‘tibor berilayotganligidir.</p>	<p>W – Zaifliklar <i>(Weaknesses)</i></p> <p>X_2 – Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligini yoqori hosil beradigan navlarni ekish hisobida oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.</p>
<p>O – Imkoniyatlar <i>(Opportunities)</i></p> <p>X_3 – fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflanayotgan mineral o‘g‘itlarning klasterlar tomonidan o‘z vaqtida yetkazib berilishini ta‘minlash lozim.</p>	<p>T – Tahdidlar <i>(Threats)</i></p> <p>t – vaqt birligi viloyat fermer xo‘jaliklarida yillar mobaynida don va dukkakli don ekinlar yalpi hosilining kamayib borayotganligi uning dinamikasida pasayish tendensiyasiga sabab bo‘lmoqda.</p>

Ilmiy tadqiqot natijasida fermer xo‘jaliklarining umumiy daromadlariga kuchli ijobiy ta‘sir etuvchi omil belgilar fermer xo‘jaligida yaratilgan ish o‘rinlari, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda 1 gektarga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha hosildorligi, fermerlik faoliyati yuritish uchun yer olish imkoniyatlari, fermer xo‘jaliklarida bozor xizmatlarining (konsalting, marketing, audit, mulkni baholash, kredit byurolari va boshqalar) yetariligi ekanligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar har birining bir foiz o‘zgarishi, fermer xo‘jaliklarining umumiy daromadlarining o‘rtacha 0.50 %dan ko‘proq o‘zgarishiga ta‘sir etar ekan. Bu esa, o‘z navbatida, fermer xo‘jaliklari umumiy daromadlarining yaxshilanishiga olib keladi (5-jadval).

Fermer xo‘jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir qiluvchi 24 ta ko‘rsatkich respublika viloyatlari kesimida 2014-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda biz tomonimizdan Toshkent viloyati statistka boshqarmasining ma‘lumotlari asosida jamlanib, 2 ta guruhga bo‘lindi: eng kuchli va kuchsiz ta‘sir etuvchi ijobiy hamda salbiy ko‘rsatkichlar.

Barcha ko‘rsatkichlar logorifm holatiga o‘tkazilib, ularning qiymatlari asosida STATA dasturi orqali Panel modellarini ishlab chiqamiz.

¹⁵ Muallifning ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzildi.

6-jadval

Toshkent viloyati fermer xo‘jaligi yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni “Panel data” modeli asosida ekonometrik modellashtirish¹⁶

Ko‘rsatkichlar	<i>POLS modeli</i>	<i>FDE modeli</i>	<i>FEE modeli</i>	<i>REE modeli</i>
Fermer xo‘jaliklari soni	0.5900	0.3045	0.1562	0.5900
Fermer xo‘jaliklariga joriy yil hosili uchun ekilgan barcha ekinlar yer maydoni (kuzgi ekinlarni qo‘shgan holda)	-0.3414	-0.2431	-0.1365	-0.3414
Fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan umumiy yer maydoni	0.0020	0.0443	0.0547	0.0020
1 ta fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydoni	0.6707	0.4616	0.2964	0.6707
Fermer xo‘jaliklarida band bo‘lganlar soni	0.1111	0.1572	0.1626	0.1111
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan mineral o‘g‘itlar	-0.3491	0.1572	-0.1470	-0.3491
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarga sarflangan organik o‘g‘itlar	0.0424	-0.0762	-0.1280	0.0424
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan sabzavot mahsulotlarining ekin maydoni	-0.1331	-0.1159	-0.0721	-0.1331
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan sabzavot mahsulotlarining yig‘ilgan yalpi hosili	0.1770	0.2106	0.2456	0.1770
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan sabzavot mahsulotlarining o‘rtacha hosildorligi	0.0385	0.0821	0.0277	0.0385
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-rezavor mahsulotlarining maydoni	-0.0411	0.0290	0.1225	-0.0411
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-rezavor mahsulotlarining yalpi hosili	0.5544	0.4930	0.4992	0.5544
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-rezavor mahsulotlarining o‘rtacha hosildorligi	0.2236	0.1363	0.0656	0.2236
Fermer xo‘jaliklari tomonidan so‘yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar, jami (tirik vaznda)	0.1946	0.1364	0.3463	0.1946
Fermer xo‘jaliklarida sog‘ib olingan sut	0.0261	0.0775	0.1303	0.0261
Fermer xo‘jaliklari tomonidan olingan tuxum	-0.0636	-0.0735	-0.0692	-0.0637
Fermer xo‘jaliklarida shartli etalonli traktorlar soni	0.1375	0.1824	0.2113	0.1375
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli ekinlarning yalpi hosili	0.5216	0.4151	0.3949	0.5216
Fermer xo‘jaliklarida don va dukkakli ekilgan ekin maydoni	-0.3228	-0.1964	-0.1127	-0.3228
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli ekinlarning o‘rtacha hosildorligi	0.3305	0.1682	0.0491	0.3305
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlar bo‘yicha 1 ta fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydoni	-0.0916	-0.1297	-0.1705	-0.0916
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan paxta ekinlar yalpi hosili	0.0105	-0.0648	-0.0903	0.0106
Fermer xo‘jaliklarida paxta ekilgan ekin maydoni	0.0154	0.0566	0.0253	0.0154
Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan paxta ekinlarning o‘rtacha hosildorligi	0.1903	0.2256	0.2741	0.1903

¹⁶ Muallifning ilmiy tadqiqot ishining hisob-kitob natijalari asosida tuzildi.

Ushbu 24 ta ko'rsatkichni fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etishi omillarining kuchli tomonlarini, zaifliklarini, imkoniyatlarini, tahdidlarini SWOT – tahlilida ko'rib chiqamiz (6-jadval).

7-jadval.

Fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish hajmiga omillar ta'sirining SWOT – tahlili¹⁷.

S – Kuchli tomonlar	W – Zaifliklar	O – Imkoniyatlar	T – Tahdidlar
